

---

## RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahridagi Farg'ona ko'chasida olib borilayotgan qurilish ishlari yuzasidan murojaat tarqaldi. Mazkur murojaat shahar hokimligi va tegishli tashkilotlar mutaxassislari tomonidan o'rganildi.

Farg'ona ko'chasining Islom Karimov nomidagi katta halqa yo'lidan boshlangan qismidan Qirguli mavzesigacha bo'lgan masofasida 2014 yilda qurilish ishlari olib borilgan. Ayni kunlarda shu masofadagi bardyurlar olinib, shaharsozlik talablariga mos bo'lgan quyma bardyurlar va ko'cha chiroqlari o'rnatilishi belgilangan.

Bardyurlar "Farg'ona ko'priklardan foydalanish" UK ishchilari tomonidan ko'chirilib, belgilangan shahar ko'chalariga o'rnatiladi. 72 ta yoritgich ustunlari esa shahar obodonlashtirish boshqarmasining ko'cha chiroqlari bo'limi ishchilari tomonidan olinib, zarur bo'lgan markaziy ko'chalarga o'rnatilishi belgilangan. Mazkur ishlar shahar hokimligi va tegishli tashkilotlar tomonidan nazoratga olingan. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ham qo'shimcha ma'lumotlar berilishini ma'lum qilamiz.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-21 20:36:10